



**MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA OLIY TA'LIM MUASSASASI
TYUTORLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI**



Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat boshqarmasi boshlig'i

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida tyutorlikning roli va uning tarixiy rivojlanishi tahlil qilinadi. Maqolada tyutor tushunchasining etimologiyasi, uning qadimgi Yunoniston va Oksford, Kembrij universitetlaridagi dastlabki shakllari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, tyutor faoliyatining asosiy komponentlari (motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv) hamda ularning mazmun-mohiyati yoritilgan. Maqolada tyutorning talabalar faoliyatini boshqarishdan tortib, ularning shaxsiy va intellektual rivojlanishini qo'llab-quvvatlashgacha bo'lgan vazifalarining evolyutsiyasi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: tyutor, murabbiylik, oliy ta'lim, ta'lim tarixi, tyutorlik komponentlari, individuallashtirish, talabalar rivojlanishi.

Annatation: This article analyzes the role and historical development of tutoring in higher education institutions. The article examines the etymology of the term "tutor" and its early forms in ancient Greece and at Oxford and Cambridge universities. It also highlights the main components of tutor activity (motivational, cognitive, operational, reflexive) and their essence. The article analyzes the evolution of the tutor's responsibilities, from managing student activities to supporting their personal and intellectual development.



Keywords: tutor, mentoring, higher education, history of education, tutoring components, individualization, student development.

KIRISH

Oliy ta'lim muassasalarida murabbiylar o'z bilim va tajribalarini ulashish orqali nazariya va amaliyotni bog'lashga yordam beradi. Murabbiylik iqtidorli va tashabbuskor yosh mutaxassislarning rivojlanishida asosiy harakatlantiruvchi kuch bo'lib, ularning kasbiy taraqqiyotidagi maqsadlarni to'g'ri belgilashlariga ko'maklashadi. Tyutorlik tizimi zamonaviy ta'limda muhim ahamiyat kasb etib, talabalarning nafaqat o'quv jarayonidagi muvaffaqiyatini, balki ularning shaxsiy o'sishini ham ta'minlaydi. Ushbu maqola tyutorlik tushunchasining tarixiy ildizlarini, uning rivojlanish bosqichlarini va bugungi kundagi oliy ta'lim tizimidagi o'rnini atroflicha ko'rib chiqadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

“Tyutor” (tutor) inglizcha so'z bo'lib, tom ma'noda *ustoz, murabbiy, instruktor* – *yo'l ko'rsatuvchi* ma'nolarida qo'llaniladi. Tyutor birinchi navbatda, ma'lum bir sohaning mutaxassisi bo'lib, uning asosiy vazifasi talabaga muayyan bilim va ko'nikmalar berishdan iborat. Kengroq ma'noda esa, tyutor talabaga o'quv jarayoni davomida o'z salohiyatini namoyon qilish, o'zini yanada yaxshiroq anglash, o'qish va hayotda to'g'ri qaror qabul qilish va tanlashni o'rgatadi. U talabaga har bir qadam va harakatlarining oqibatlarini anglash, hayotda o'z qiziqishlarini topishga yordam beradi [1].

Tyutorlik – qadimgi Yunonistonda norasmiy va tuzilmagan ta'limiy yordam usuli sifatida boshlangan. Tyutorlar – bugungi kundagi repetitorlar deb yuritilgan. Repetitorlar – tartibga solinmagan sharoitlarda, aniq belgilangan mehnat



sharoitlarisiz faoliyat yuritgan. Tyutor (repetitor)ning asosiy maqsadi o'quvchiga muayyan fan sohasida bilim va ko'nikmalarni egallashga yordam berish edi [2].

Dastlabki tyutorlar XII asrda Angliyaning Oksford va Kembrij universitetlarida paydo bo'lganligi ko'plab manbalarda qayd etilgan. "Tyutor" atamasi ingliz tilidan olingan bo'lib, "uy o'qituvchisi, murabbiy, vasiy" degan ma'nolarni anglatadi. Aslida, tyutorlik shaxsiy ta'limni qo'llab-quvvatlash tizimi sifatida rivojlangan bo'lib, dastlab talabalar tarbiyasini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan [3]. O'sha davrda universitet talabalari ko'pincha turli shaharlardan kelib, yangi muhitga moslashish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelganlari sababli, tyutorlar ularga yo'l-yo'riq ko'rsatish, bilim olish jarayonini tashkil etish va mustaqil o'rganishga yo'naltirishda muhim rol o'ynagan.

Rus tadqiqotchisi N.V. Ribalkinaning fikriga ko'ra, XVI asr oxiriga kelib, tyutor universitet ta'limi tizimida qo'l ostidagi talabalarning tarbiyasiga mas'ul bo'lgan muhim shaxsga aylanadi. Ularning vazifalari talabalarni nazorat qilish, o'qitish va ularga maslahat berishdan iborat edi. XVII asrga kelib esa tyutorning roli yanada kengayib, endilikda u talabalar uchun qaysi amaliy mashg'ulot va ma'ruzalarga qatnashish kerakligini belgilab bera boshlaydi [4]. Shuningdek, u darslarga muntazam qatnashishni nazorat qilish, o'qish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish va imtihonlarga tayyorgarlik jarayonini boshqarish bilan shug'ullangan.

Tyutorlik tizimi XVII asrning o'rtalaridan boshlab ingliz oliy ta'lim tizimining ajralmas qismi sifatida rasman tan olingan. Aynan shu davrdan boshlab, tyutorlik nafaqat universitet talabalarini nazorat qilish, balki ularning intellektual va shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash tizimi sifatida qaralgan [5]. Tyutorlar endi nafaqat darslarga qatnashishni nazorat qilgan, balki talabalar bilan individual ishlash orqali ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga ham hissa qo'sha boshlaganlar.



T..M. Kovalyovanning tyutorlik — bu pedagogik ko‘maklashishning alohida turi — u ochiq ta’lim jarayonida o‘quvchini individuallashtirish jarayoniga ko‘maklashishdir, degan fikrini qo‘llab-quvvatlash mumkinligi alohida qayd etilganligini [6] ko‘rish mumkin.

1.1jadval

ASOSIY QISM

Komponent nomi	Mazmun-mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari
Motivatsion komponent	O‘qituvchining tyutorlik faoliyatini bajarishga ongli ravishdagi munosabati, o‘z kasbiy faoliyatidan qoniqishi, tyutorlik yordam ko‘rsatishning ijtimoiy ahamiyatini anglashini o‘z ichiga oladi [7]. Bu komponent tyutorning faoliyatga ichki moyilligini va mas’uliyatini aks ettiradi.
Kognitiv komponent	Tyutor rolini bajarayotgan o‘qituvchining kasbiy-pedagogik bilimlarini o‘z ichiga oladi. Ularni tyutorlik yordam ko‘rsatishning metodologiyasi, spesifikasi va xususiyatlari sifatida tasavvur qilish mumkin [7]. Bu komponent tyutorning bilim bazasini va nazariy tayyorgarligini bildiradi.
Operatsion komponent	O‘qituvchining tyutorlik faoliyatini bajarishi bo‘yicha ko‘nikma va malakalar kompleksini o‘z ichiga oladi, tyutor hatti-harakati yo‘nalishi, maqsadlarga erishish uchun usullar va yo‘llar yig‘indisidan iborat bo‘ladi [7]. Bu komponent tyutorning amaliy ko‘nikmalarini va faoliyat strategiyalarini o‘z ichiga oladi.
Refleksiv komponent	Tyutorlar o‘z faoliyatini tahlil qilish va natijalarini anglash jarayoni. U yakuniy natijada muammoning mohiyatini o‘z nuqtai nazaridan anglash, yuzaga keladigan birorta muammoni hal




	qilish bilan izohlanadi [7]. Bu komponent tyutorning o'z faoliyatini tanqidiy baholash va takomillashtirish qobiliyatini aks ettiradi.
--	--

MUHOKAMA

Dastlabki davrlarda tyutor funksiyasi asosan o'qituvchi va talabalar o'rtasida vositachilik qilish sifatida ko'rib, o'qituvchining faoliyatiga qo'shimcha yordamchi sifatida aks etgan [8]. Ya'ni, tyutor o'quv jarayonida o'qituvchining yordamchisi sifatida faoliyat yuritib, talabalarga ma'lumotlarni yetkazish, ularning mustaqil ta'lim olishini ta'minlashda yordamchi rolini o'ynagan. Biroq ta'lim sohasidagi ilmiy-amaliy izlanishlar natijasida tyutorlik faoliyati mazmun jihatdan boyib, uning vazifalari kengaydi va murakkablashdi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonida tyutor shaxsni rivojlantirishga, individual ta'lim traektoriyasini shakllantirishga va talabaning ta'limiy-tarbiyaviy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan ko'p qirrali mutaxassis sifatida qaraladi. Tyutorning faoliyati endi faqat repetitorlik yoki nazorat qilishdan iborat emas. U motivatsion, kognitiv, operatsion va refleksiv komponentlarni o'z ichiga olgan murakkab pedagogik jarayonni tashkil etadi [7].

1.2jadval





Bu komponentlar tyutorning talabalar bilan samarali ishlashi, ularning o'z salohiyatlarini to'liq namoyon etishlari va mustaqil qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishlari uchun zarurdir. Oliy ta'limda tyutorning roli shaxsiy o'sishni qo'llab-quvvatlash, talabalarning o'quv va hayotiy qiziqishlarini aniqlashga yordam berish kabi kengroq vazifalarni o'z ichiga oladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tyutorlik qadimgi Yunonistondagi norasmiy yordam shaklidan boshlab, Oksford va Kembrij universitetlarida rivojlangan va bugungi kunda oliy ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylangan. Dastlabki davrlarda tyutorning vazifasi asosan o'quv jarayonini nazorat qilish va bilim berishdan iborat bo'lgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan bu rol kengayib, talabalarni shaxsiy rivojlantirish, ularga kasb tanlashda yo'l-yo'riq ko'rsatish va hayotiy qarorlar qabul qilishda yordam berishga qaratilgan. Bugungi kunda tyutorlik nafaqat o'quv muvaffaqiyatini, balki talabaning har tomonlama shaxsiy o'sishini ta'minlaydigan motivatsion, kognitiv, operatsion va refleksiv komponentlarga ega bo'lgan murakkab va ko'p qirrali faoliyatdir. Bu tyutorlik faoliyatining zamonaviy ta'limdagi ahamiyatini yanada oshiradi va talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatiga samarali tayyorlashda muhim o'rin tutadi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Gardner III R. et al. Tutoring system innovations: Past practice to future prototypes //Intervention in School and Clinic. — 2007. — T. 43. — №. 2. — C. 71—81. doi:10.1177/10534512070430020701
2. Ministry of Education of the United Kingdom (2020). Tutor Role and Responsibilities in Higher Education. London: Department for Education.
3. Ribalkina, N.V. (2004). Тьютор в системе высшего образования. Москва: Изд-во МGPU.



4. Postholm, M. B. (2018). Teacher mentoring and professional development. International Journal of Educational Research, 90, 30-41.
5. Kovaleva T.M., Kobisha E.I., Popova (Smolik) S.Yu., Terov A.A., Cheredilina M.Yu. Professiya «tyutor». M.-2012. Tver: «SFK-ofis». –246 s, 65s.
6. Ibraymov A.E. Masofaviy o‘qitishda tyutorlik faoliyatini tashkil etishning asoslari. // Usuliy qo‘llanma. – Toshkent: “Lesson press”, 2020, 181 bet. 32b.
7. Allambergenov A.J. Raqamlashtirilgan ta’lim muhitida tyutorlik faoliyatining funksiyalari. Obrazovanie i innovatsionnie issledovaniya (2022 god №12) 161 b.